


## **YALPI HUDUDIY MAHSULOT**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 4329,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	<b>I. YaHM</b>	<b>3 608,1</b>	<b>4 329,7</b>	<b>105,8</b>

*shu jumladan:*

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 465,9	4 141,0	105,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	142,2	188,7	111,7
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>3 465,9</b>	<b>4 141,0</b>	<b>105,5</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 139,1	1 436,4	104,9
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>746,8</b>	<b>905,7</b>	<b>111,7</b>
	sanoat	497,9	615,6	117,0

		Mird. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	248,9	290,1	101,2
	<b>Xizmatlar</b>	<b>1 580,0</b>	<b>1 798,9</b>	<b>103,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	282,3	327,0	102,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	275,7	319,4	103,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 022,0	1 152,5	103,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 283,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga yuqoridir.



## Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari

2020- yil

1 930,2

3,3

2021- yil

2 283,5

4,3



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 34,7 % ni, sanoat tarmog'i 14,9 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 43,4 % ni tashkil qildi.




### Yanvar-mart oyalarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	shu jumladan:		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,1	95,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,9	4,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,9	34,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21,6	21,9
	sanoat	14,4	14,9
	qurilish	7,2	7,0
	Xizmatlar	45,5	43,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	7,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,0	7,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	29,4	27,8




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,7 %), sanoatda – 117,0 % (14,9 %), qurilishda – 101,2 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 103,0 % ni (43,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 102,1 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,9 % (7,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (27,8 %) iborat bo`ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.



### 2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,5 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 120,2 % va qurilishda – 115,2 % qayd etildi.



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 66,8 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 66,7 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: E.Axmedov  
Tel.: (62) 227-78-65**